

JISMONIY TARBIYA JARAYONIDA DIAGNOSTIK USULLAR AMALIYOTI

R.X.Kadirov

Osiyo Xalqaro Universiteti

Jismoniy madaniyat kafedrası professori

email: rashidkadirov500@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy ta'lim samaradorligini baholash maqsadida qo'llaniladigan maxsus mashqlar, standartlashtirilgan o'lchov, yoki sinov (test)lari orqali diagnostik nazoratlarni o'tkazish va ishonchli xulosa yaratish modeli tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Nazorat sinov, kuzatish, og'zaki so'rov, ekspert baholash, kasbiy kompetensiya, nazorat test, umumiy chidamlilik, dinamik kuch, tezkor kuch qobiliyati, faol egiluvchanlik, koordinatsion qobiliyat, mashg'ulotning umumiy va motor zichligi, qiyosiy farq ishonchligi.

KIRISH. Zamonaviy ilmiy-nazariy tafakkur, bugungi kunda keskin o'zgarayotgan hodisa va jarayonlarning tub mohiyati sari intilmoqda. Mazkur tendensiya, ilmiy o'rganish ob'ekti sari diagnostik va korreksion tahlil texnologiyalarini ijtimoiy-iqtisodiy sohalar amaliyotiga joriy etish, samaradorlikni oshirishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda, shu kunga davr va bundan keyin ham ilm-fan rivojiga katta e'tibor qaratilishi zamon talabiga aylanib bormoqda. Fan bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiya past darajada qolayotgani, ilmiy izlanishlar yetarlicha qo'llab-quvvatlanmayotgani tanqid qilindi, bu boradagi ishlarni amalga oshirish, kadrlar tayyorlash, ilmiy ishlanmalar yaratish va soha yo'nalishlariga tatbiq etish masalalari strategik ahamiyat kasb etadi¹.

Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiyani tashkil etish jarayonida ta'lim oluvchilarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi bo'yicha har yili monitoring ishlarini olib borishlari talab etiladi [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODIKA. Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining pedagogik faoliyatlarida diagnostika bilan shug'ullanishlari lozimligi bugungi kun talablaridan biridir. Har qanday faoliyat zamirida ham amalga oshirilgan ishlarning pirovard maqsadi, vazifalari va kutilgan natijalari bo'ladi. Faoliyat natijalarini sarhisob qilish, amaliy xulosalar yasash – bo'sh yoki muvaffaqiyatli o'rnlarni belgilab olish, faoliyatning keyingi bosqichlarida uni hisobga olish diagnostika deb ataladi.

Diagnostik nazorat, o'quvchining harakat amallarini o'zlashtirishi, ta'lim va tarbiya jarayonidagi qiyinchiliklarini, ta'sir qilayotgan pedagogik (biomekanik, fiziologik, bioximik) ijtimoiy, oilaviy omillarni o'rganishga yo'naltirilgandir.

Diagnostika natijalari esa, ta'lim-tarbiya, sport tayyorgarligi jarayonini to'g'ri rejalashtirish, yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatish, psixologik-pedagogik profilaktika ishlarini olib borish imkonini beradi. Buning uchun pedagog ta'lim va sport tayyorgarligining uslubiy bilimlarni puxta egallashi yetarli emas. Pedagog o'zining faoliyat natijalarini tahlil qilishi, o'quvchilarda qiyinchilik tug'dirayotgan sabablarni o'z vaqtida aniqlashi, bu qiyinchiliklarni o'quvchiga individual yondashuv jarayonida bartaraf qila olishi lozim. Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish vositasi va yo'llaridan biri - ilmiy jihatdan asoslangan jismoniy tarbiya diagnostika va korreksiyadir. Bugungi kunda, jismoniy tarbiya diagnostikasi va korreksiyasining o'rni, ahamiyati qanchalik katta ekanini hech kim inkor qilmaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Maktabgacha ta'lim muassasasi bolalarining jismoniy

rivojlanishini nazorat qilishning zamonaviy pedagogik diagnostika yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni bajarish;
- asosiy harakat amallarini bajarish;
- ommalashgan ba'zi sport turlari bo'yicha boshlang'ich tasavvurlarini shakllantirish;
- harakatli o'yinlarni o'zlashtirish;
- harakat faoliyatining maqsadga intilish va o'zini-o'zi boshqarish ko'nikmalarini egallash;
- sog'lom turmush tarzining oddiy qoida va talablarini egallash [4].

Maktabgacha ta'lim yoshida bolaning jismoniy rivojlanishini samarali tashkil etish uchun, inson jismoniy rivojlanishining uning hayotiy davridagi bir qator prinsipial farqlarini e'tiborga olish talab etiladi. Misol, maktabgacha ta'lim yoshida sensitiv davr hisoblanmasligi sababli hamma qobiliyatlar ham nazoratga olinmaydi.

Bolalar jismoniy rivojlanishini nazorat qilishda keng ko'lamli pedagogik diagnostika usullari qo'llaniladi: nazorat sinov, kuzatish, og'zaki so'rov, ekspert baholash. Maktabgacha ta'lim muassasalari, o'zlarining mavjud shart-sharoitlariga mos ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish uchun muhim diagnostik usullarni tanlash mumkin. Diagnostik usullarni tanlashning umumiy shartlari:

- ta'limni individuallashtirish (jumladan, bolani qo'llab-quvvatlash, uning ta'lim traektoriyasi va kasbiy xususiyatlarini rivojlantirish);
- bolalar bilan ishlashni optimallashtirish.

Ushbu tavsiyalarning asosiy farqli tomoni shundaki, bolalarni jismoniy rivojlantirish bo'yicha pedagogik faoliyat samaradorligini ob'ektiv tasdiqlash imkonini beruvchi, natijalar haqqoniyligini matematik hisoblash va statistik tahlil modellari bayon etilgan.

Bolalar jismoniy sifatlarning (harakat qobiliyat) rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida, maxsus mashqlar, standartlashtirilgan o'lchov, yoki sinov (test)lar orqali nazorat sinovlari o'tkaziladi. Testlash orqali, jismoniy tarbiya jarayonida qo'llaniladigan vosita va usullarning ijobiy va salbiy tomonlari aniqlanadi.

Pedagogning kasbiy mahoratidan kelib chiqib, alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan pedagogik-tuzatish (korreksiyalash) va tibbiy-psixologik vazifalar, jumladan, jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlarini tuzatishga hamda reabilitatsiya qilishga muhtoj bo'lgan bolalarning maktabgacha ta'lim va tarbiya olishi maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi asosida ishlab chiqilgan yakka tartibdagi rejalar bo'yicha amalga oshiriladi.

Zamonaviy monitoringni tashkil etishga qaratilgan pedagogik faoliyat jarayonida maktabgacha ta'lim dasturlarini amalga oshirish zarurati, pedagogning kasbiy standart talablariga munosib faoliyat yuritishni taqozo etadi.

1. Tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi:

- bolalar tomonidan ta'lim dasturlarini o'zlashtirishning pedagogik monitoringini tashkil etish, o'tkazish va natijalarini tahlil qilish;
- alohida bolalarning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda, monitoring tahlillar asosida ta'lim vazifalarini rejalashtirish va korreksiyalash;
- yosh va individual rivojlanish xususiyatlarini e'tiborga olgan holda bolalarni rivojlantirish.

Dastlabki diagnostik kuzatuvlarni o'tkazish orqali jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bilan

shug‘ullanish uchun uchta tibiy guruhga mansub bolalar guruhi saralanadi (1-jadvalga qarang).

Jadval 1.

BOLALARNING GURUHLARGA TAQSIMOT XUSUSIYATI

Salomatlik guruhlari	Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanish uchun tibbiy guruhlar	Mashg‘ulot turi
I – salomatlik guruhi	Asosiy Bolalar: - salomatlik holati va jismoniy rivojlanishiga ko‘ra nuqsonsiz; - funksional zaiflik sababli tengdoshlaridan jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarligiga ko‘ra ortda qolmagan	Ta’lim muassasasining to‘liq jismoniy madaniyat mashg‘ulotlari olib boriladi
II – salomatlik guruhi	Tayyorlov Bolalar: - zaif jismoniy tayyorgarlik, yoki morfofunktsional buzilishlar; - yaqqol kasallik (patologik holatiga) sababli xavfli guruhga mansub; - 3-5 yil davomida doimiy tibbiy (klinik-laborator remissiya) nazoratda bo‘lgan, surunkali kasalliklar	Ta’lim muassasalarida o‘tkaziladigan mashg‘ulot yuklamalari va individual xususiyatlarini hisobga olib jismoniy madaniyat mashg‘ulotlari olib boriladi
III – salomatlik guruhi	Maxsus tibbiy guruhi (“A” kichik guruh) Bolalar: - doimiy salomatlikning yomonlashuvi, vaqtinchalik xususiyatga ega surunkali kasallik holati, deformatsiya va rivojlanish kuzatilmaydigan tug‘ma nuqsonlar; - jismoniy rivojlanish buzilishlari sababli jismoniy yuklamani qat’iy cheklash	Ta’lim muassasasining adaptiv jismoniy madaniyat bo‘yicha maxsus dasturi

Bolalarni tibbiy guruhlariga mansubligi bo‘yicha taqsimlash orqali har bolaning individual xususiyatlariga asoslanib pedagogik faoliyatni olib borishga imkon beradi.

Nazorat testlarini tanlashning umumiy talablari mavjud [2,4]:

- diagnostik nazoratda qatnashuvchi barcha bolalar uchun standartlashtirilgan sharoitlar (vaqti, ovqatlanishi, yuklama hajmi va h.k.z.)da testlarni o‘tkazish;
- jismoniy tayyorgarlik darajasidan qat’iy nazar barcha bolalar uchun yengil va tushunarli bo‘lishi;
- barcha testlar o‘zining miqdoriy ko‘rsatkichlariga (soniya, marta, metr) egaligi;
- nazorat mashqlarni o‘lchash va baholash amallarining soddaligi (2-jadvalga qarang).

Jadval 2.

TAXMINIY NAZORAT MASHQLAR

(testlar)

Harakat qobiliyatlari	Nazorat mashq (test)lari uchun namuna
<i>Chidamlilik jismoniy sifati</i>	
Umumiy chidamlilik	1000 metrga aralash harakatlanish (yurish va yugurishlarning navbatlashuvi)

<i>Kuch jismoniy sifati</i>	
Dinamik kuch	Belda yotgan holatda gavdani ko'tarib-tushirish (bir daqiqada necha marta)
Tezkor kuch qobiliyati	Turgan joydan ikki oyoqda uzunlikka sakrash (sm)
	150 gramm koptokchani masofaga uloqtirish (m)
	Bosh ortidan ikki qo'llab to'ldirma to'pni uloqtirish (m)
<i>Tezkorlik jismoniy sifati</i>	
Tezkorlik qobiliyatlar	30 metrga yugurish
<i>Egiluvchanlik jismoniy sifati</i>	
Faol egiluvchanlik	Gimnastika o'rindig'ida turib oldinga bukilish (o'rindiq qirrasidan – sm)
<i>Epchillik jismoniy sifati</i>	
Koordinatsion qobiliyat	3x10 metr (s) – mokisimon yugurish

Zamonaviy standartlar ham, pedagoglar uchun nazorat sinovlarni bajarishning barcha vaziyatlariga mos etalon me'yorlarini tavsiya eta olmaydi. Jismoniy tarbiya ta'limini individuallashtirishning rasional yechimi bu o'quv yili davomida o'lchov natijalarining o'zgarishini qiyoslashda, o'zaro bog'liq tanlanmalarning o'rtacha farq ishonchligini baholash usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ishonchlilikning t-mezonidan foydalangan holda, bola jismoniy rivojlanishining dinamikasi va o'zgarish ko'rsatkichlari dinamikasini baholash ishonchliligini hisoblash tartibi, quyidagicha [3]:

1. Maxsus jadvalning birinchi va ikkinchi ustunlari to'ldiriladi. Misol, maktabga tayyorlov guruh bolalarining o'quv yili boshida (x_1) va o'quv yili oxirida (x_2) qayd etilgan turgan joydan uzunlikka sakrash ko'rsatkichlari (**3-jadvalga qarang**).

Jadval 3

UZUNLIKKA SAKRASH TEST KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI FARQ ISHONCHLIGINI HISOBLASH

O'quv yili boshidagi ko'rsatkichlar x_1	O'quv yili yakunidagi ko'rsatkichlar x_2	Farq $d = x_2 - x_1$	O'rtachadan og'ish $d - \bar{d}$	Og'ish kvadratlari $(d - \bar{d})^2$
1	2	3	4	5
78	112	34	19,3	372,5
94	113	19	4,3	18,5
106	104	-2	-16,7	278,9
83	95	12	- 2,7	7,3
122	140	18	3,3	10,9
103	111	9	5,7	32,5
107	120	13	-1,7	2,9
98	115	17	2,3	5,3
88	106	18	3,3	10,9
76	90	14	-0,7	0,5
108	130	22	7,3	53,3
91	93	2	-12,7	161,3

82	110	28	13.3	176,9
90	93	3	-11,7	136,9
		$\sum d = 206$		$\sum (d - \bar{d})^2 = 1268,6$

2. Birinchi va ikkinchi qatorlar o'rtasidagi farq ko'rsatkichni uchinchi ustunda hisoblanadi $\sum d = 206$.

3. Farqning o'rtacha qiymati hisoblanadi.

$$\bar{d} = \frac{\sum d}{n} = \frac{206}{14} = 14,7$$

4. Farqning o'rtacha qiymatidan og'ish hisoblanadi $d - \bar{d}$.

5. Hisoblangan og'ish qiymatlarini kvadratga oshiriladi (5-ustun).

6. Formula yordamida standart og'ish hisoblanadi.

$$\sigma_d = \sqrt{\frac{\sum (d - \bar{d})^2}{n-1}} = \sqrt{\frac{1268,6}{14-1}} = 9,88$$

7. Formula yordamida o'rtacha xatolik m_d hisoblanadi.

$$m_d = \frac{\sigma_d}{\sqrt{n-1}} = \frac{9,88}{\sqrt{14-1}} = 2,74$$

8. t qiymati hisoblanadi.

$$t = \frac{\bar{d}}{m_d} = \frac{14,7}{2,74} = 5,36$$

9. Qiyosiy farq haqqoniyliги 5-jadval bo'yicha aniqlanadi (**4-jadvalga qarang**). Buning uchun aniqlangan qiymat ($t=5,36$) maxsus jadvaldagi 5% darajaviy ahamiyat qiymati bilan solishtiriladi ($k = n - 1$ erkinlikning darajaviy qiymati, bunda $n=14$ - sinalluvchilar soni).

Jadval 4.

ERKINLIK QIYMATIGA MOS 5% AHAMIYAT DARAJASI UCHUN T- MEZON (STUDENT) KO'RSATKICHI

Erkinlik darajasi (k)	P < 0,05	Erkinlik darajasi (k)	P < 0,05	Erkinlik darajasi (k)	P < 0,05
1	2,16	13	2,16	27	2,05
2	4,30	14	2,15	28	2,05
3	3,18	15	2,13	29	2,04
4	2,78	16	2,12	30	2,04
5	2,57	17	2,11	40	2,02
6	2,45	18	2,10	50	2,01
7	2,37	21	2,08	60	2,00
8	2,31	22	2,07	80	1,99
9	2,26	23	2,07	100	1,98
10	2,23	24	2,06	120	1,98
11	2,20	25	2,06	200	1,97
12	2,18	26	2,06	500	1,96

XULOSA. Hisoblangan empirik t (**5,36**) qiymat, qiyoslashtiriladigan jadval t 0,05 (**2,16**) qiymatidan katta bo'lganligi, bolalarning o'quv yili boshida va oxirida qayd etilgan uzunlikka sakrash natijalari o'rtasida $r < 0,05$ (5% li ahamiyat darajasida) ishonchli farq mavjudligini

ko'rsatadi. O'quv yili davomida bolalarni jismoniy rivojlantirishning pedagogik jarayon samaradorligini yetarlicha asosga ega ekanligi aniqlandi.

Tavsiyalar:

1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy rivojlanishini nazorat qilishning quyidagi pedagogik diagnostika yo'nalishlari tavsiya etiladi:

- jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni bajarish;
- asosiy harakat amallarini bajarish;
- ommalashgan ba'zi sport turlari bo'yicha boshlang'ich tasavvurlarini shakllantirish;
- harakatli o'yinlarni o'zlashtirish;
- harakat faoliyatining maqsadga intilish va o'zini-o'zi boshqarish ko'nikmalarini egallash;
- sog'lom turmush tarzining oddiy qoida va talablarini egallash.

2. Maktabgacha ta'lim yoshida bolaning jismoniy rivojlanishini samarali tashkil etish uchun, inson jismoniy rivojlanishining uning hayotiy davridagi bir qator prinsipial farqlarini e'tiborga olish talab etiladi. Misol, maktabgacha ta'lim yoshida sensitiv davr hisoblanmasligi sababli hamma qobiliyatlar ham nazoratga olinmaydi.

3. Bolalar jismoniy rivojlanishini nazorat qilishda keng ko'lamli pedagogik diagnostika usullari qo'llaniladi: nazorat sinov, kuzatish, og'zaki so'rov, ekspert baholash. Maktabgacha ta'lim muassasalari, o'zlarining mavjud shart-sharoitlariga mos ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish uchun muhim diagnostik usullarni tanlash mumkin.

4. Diagnostik usullarni tanlashning umumiy shartlari:

- ta'limni individuallashtirish (jumladan, bolani qo'llab-quvvatlash, uning ta'lim traektoriyasi va kasbiy xususiyatlarini rivojlantirish);
- bolalar bilan ishlashni optimallashtirish.

Ushbu tavsiyalarning asosiy farqli tomoni shundaki, bolalarni jismoniy rivojlantirish bo'yicha pedagogik faoliyat samaradorligini ob'ektiv tasdiqlash imkonini beruvchi, natijalar haqqoniyligini matematik hisoblash va statistik tahlil modellari vositasida hisoblash o'rinli.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori, 03.11.2022 yildagi PQ-414-son.

2. Kadrirov R.X., Jismoniy tarbiya diagnostikasi va korreksiyasi [Matn]: darslik / R.H. Kadrirov. - Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2020. - 184 b.

3. Умаров Д.Х. Обработка экспериментальных данных методом математической статистики. //Фан-спортга.-Тошкент, 2009. - № 4. - С. 24-26.

4. Швалева Т. А., Матонина О.П. «Диагностика физической подготовленности дошкольников». / Швалева Т.А. , Матонина О.П. –Абакан, Из-во АБАКАН, 2008г. С-54.

<https://uchitelya.com/pedagogika/136138-edinaya-diagnostika-fizicheskoy-podgotovlennosti-doshkolnikov.html>.